

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 9

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

TALABALARDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

Meliboyev Doniyor Hayotjon o'g'li

Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti, magistr, psixolog.

e-mail: meliboyevdoniyor6@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0004-3116-2640>

Annotatsiya.

Maqolada talabalik davriga xos psixologik xususiyatlar — avtonomiya, kasbiy identifikatsiya va tanqidiy fikrlash nuqtayi nazaridan axborot xavfsizligini ta'minlashning psixologik muammolari nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Muallifning o'smirlar bo'yicha olib borgan magistrlik tadqiqoti natijalari asosida talabalar auditoriyasiga moslashtirilgan uslubiy yondashuv va tadqiqot dizayni taklif etiladi.

Kalit so'zlar: axborot xavfsizligi, axborot-psixologik xavfsizlik, talabalar, internetga qaramlik, tanqidiy fikrlash, ijtimoiy muhandislik, mediasavodxonlik.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ У СТУДЕНТОВ

Мелибоев Дониёр Хаётжон угли

Международный институт пищевых технологий и инженерии, магистр, психолог.

Аннотация.

В статье проводится теоретический анализ психологических проблем обеспечения информационной безопасности с учётом психологических особенностей студенческого возраста — автономности, профессиональной идентификации и критического мышления. На основе проведённого автором магистерского исследования среди подростков предлагаются методический подход и дизайн исследования, адаптированные для студенческой аудитории.

Ключевые слова: информационная безопасность, информационно-психологическая безопасность, студенты, интернет-зависимость, критическое мышление, социальная инженерия, медиаграмотность.

PSYCHOLOGICAL PROBLEMS OF ENSURING INFORMATION SECURITY AMONG STUDENTS

Meliboyev Doniyor Hayotjon o'g'li

International Institute of Food Technology and Engineering, Master's Degree Holder, Psychologist.

Abstract.

The article provides a theoretical analysis of the psychological challenges associated with ensuring information security in the context of psychological characteristics typical of university students, including autonomy, professional identity, and critical thinking. Based on the author's master's research conducted among adolescents, a methodological approach and research design adapted to university students are proposed.

Keywords: information security, information and psychological security, university students, Internet addiction, critical thinking, social engineering, media literacy.

Kirish. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va oliy ta'lim tizimining tobora raqamlashib borishi talabalarni internet muhitida eng faol harakat qiluvchi ijtimoiy guruhga aylantirmoqda. Agar maktab o'quvchilari (o'smirlar) uchun internetdan foydalanish asosan ota-ona va o'qituvchilar nazorati ostida kechsa, talabalik davriga o'tish bilan birga bu nazorat sezilarli darajada kamayadi: talaba mustaqil turmush tarzi, moliyaviy mustaqillikka intilish, kasbiy identifikatsiya va yangi ijtimoiy muhitga moslashish jarayonlarini boshdan kechiradi. Ayni shu omillar talabalarining axborot xavfsizligiga oid xavflarni idrok etishi va ularga munosabatini o'smirlardan tubdan farqli qiladi.

Muallif tomonidan 2025-yilda "Ta'lim muassasalarida o'smirlar axborot xavfsizligini ta'minlashning psixologik muammolari" mavzusida bajarilgan magistrlik dissertatsiyasida 7-sinf o'quvchilari (13–14 yosh) orasida internetga qaramlik darajasi Kimberli Yang va Chen metodikalari asosida o'rganilgan hamda hudud va jins omillari bo'yicha statistik jihatdan qiziqarli farqlar aniqlangan [1; 65–70-b.]. Ushbu tadqiqot natijalari talabalar populyatsiyasida ham o'xshash, ammo yosh davriga xos jihatlar bilan boyitilgan tadqiqot o'tkazish zaruratini keltirib chiqaradi.

Ushbu maqolaning maqsadi — talabalarda axborot xavfsizligini ta'minlashning psixologik muammolarini nazariy jihatdan tahlil qilish, mavzuga oid mahalliy va xorijiy adabiyotlarni umumlashtirish hamda kelgusi empirik tadqiqot uchun uslubiy asos va tadqiqot dizaynini ishlab chiqishdan iborat.

Dolzarblik nuqtayi nazaridan ta'kidlash joizki, 2022-yil holatiga ko'ra O'zbekistonda Telegram tarmog'ida 18 million, Instagramda 3,7 million, Facebookda 4,7 million foydalanuvchi qayd etilgan bo'lib, ularning katta qismini aynan

yoshlar, jumladan, talaba-yoshlar tashkil etadi [9]. Bunday yuqori raqamli faollik, bir tomondan, talabalarga bilim va professional rivojlanish uchun keng imkoniyat yaratasa, ikkinchi tomondan, ularni turli xil axborot-psixologik tahdidlarga — mafkuraviy manipulyatsiya, moliyaviy firibgarlik va shaxsiy ma'lumotlarning suiiste'mol qilinishiga nisbatan ochiqroq qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Axborot-psixologik xavfsizlik tushunchasi G. V. Grachev tomonidan shaxsning axborot sohasidagi manfaatlarining himoyalanganligi hamda salbiy axborot-psixologik ta'sirlarga qarshi turish mexanizmlarini o'zlashtirganlik darajasi sifatida ta'riflangan [2; 45-b.]. A. Ye. Voyskunskiy o'z ishida axborot xavfsizligi muammosini kiberjinoyatchilik psixologiyasi va foydalanuvchilarni kiberetika asoslariga o'qitish zarurati nuqtayi nazaridan yoritadi [3; 50-b.].

Qozog'iston olimlari T. P. Vasko, O. X. Aymaganbetova va V. Yanchuk talabalarining tanqidiy fikrlash darajasi bilan axborot-psixologik xavfsizligi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganib, tanqidiy fikrlashi past bo'lgan talabalar destruktiv axborot ta'siriga ko'proq moyil bo'lishini aniqlashgan [4]. Xitoylik tadqiqotchilarning 2025-yilgi ishida talabalarining axborot xavfsizligi xatti-harakati himoya motivatsiyasi nazariyasi (Protection Motivation Theory) asosida o'rganilib, talabalar guruhining xavfni idrok etish xususiyatlari korporativ xodimlarnikidan tubdan farq qilishi ko'rsatib berilgan [5].

O'zbek tadqiqotchilaridan V. M. Karimova axborot muhitida yoshlarning shaxsiy ongi shakllanish jarayonini tahlil qilib, axborot ta'siri orqali ijtimoiy idrok va shaxsiy identifikatsiya shakllanishini alohida ta'kidlaydi [6; 31-b.]. N. S. Qosimova ijtimoiy tarmoqlardagi axborot-psixologik tahdidlar tipologiyasini, H. M. Hayitova esa fishing, kiberbulling va doksing kabi hodisalarni yoshlar axborot xavfsizligiga asosiy tahdidlar sifatida tahlil qiladi [7].

Muallifning o'zi tomonidan o'tkazilgan magistrlik tadqiqotida qo'llanilgan Kimberli Yangning 20-savolli "Internetga qaramlik testi" va Chenning "Internetga qaramlik shkalasi" (CIAS) o'smirlar namunasida yaxshi ishonchlilik ko'rsatkichlarini bergan [1; 65-b.]. Ushbu ikki metodikaning talabalar populyatsiyasida qo'llanilishi xalqaro amaliyotda ham keng tarqalgan bo'lib, ularni talabalar uchun moslashtirilgan holda qo'llash, shuningdek, qo'shimcha ravishda tanqidiy fikrlash testi, assertivlik so'rovnomasi (masalan, Rathus assertivlik shkalasi) va J. Rotterning nazorat lokusi metodikasini qo'llash tavsiya etiladi, chunki talabalarda mustaqil fikrlash va o'z xatti-harakatiga javobgarlik darajasi o'smirlarga nisbatan yuqoriroq bo'ladi.

Rus ijtimoiy psixologiya maktabi vakillaridan G. M. Andreyeva birlamchi va ikkilamchi guruhlar negizida axborot tarqalishi hamda guruh ichidagi kommunikatsiya jarayonlarining shaxs psixologik xavfsizligiga ta'sirini tahlil qilgan [10; 112-b.]. N. N. Bogomolova esa ommaviy axborot vositalari orqali tarqatiladigan manipulyativ va yolg'on axborotning inson psixikasiga salbiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatib, kommunikatsion xavfsizlikni ta'minlash zarurligini asoslab bergan [11; 58-b.]. B. D. Parigin ijtimoiy muhit va axborot oqimining shaxs ongiga ta'sirini ijtimoiy adaptatsiya jarayoni doirasida o'rgangan bo'lib [12; 74-b.], talabalik davri aynan yangi ijtimoiy muhitga (universitet, yotoqxona, yangi do'stlar davrasi) moslashish davri bo'lgani sababli ushbu yondashuv talabalar uchun alohida amaliy ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, rossiyalik psixolog V. M. Bexterevning fikricha, tashqi ta'sirlar inson psixikasiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi uchun ongli reaksiyalarni shakllantiruvchi murakkab reflekslarni rivojlantirish zarur — bu esa aynan tanqidiy fikrlash va axborotni ongli tahlil qilish ko'nikmalarining psixologik immunitet vazifasini bajarishini bildiradi [13; 210-b.]. Ushbu g'oya talabalar auditoriyasida mediasavodxonlik va axborotga nisbatan tanqidiy munosabatni shakllantirish dasturlarining nazariy asosini tashkil etishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida quyidagi dizayn taklif etiladi: turli yo'nalishdagi (texnika, gumanitar, tibbiyot) oliy ta'lim muassasalari talabalari orasida kesma (cross-sectional) so'rov o'tkazish; namunani kurs, jins, yashash joyi (turargoh/oila) bo'yicha stratifikatsiya qilish; Yang va Chen metodikalarini tanqidiy fikrlash hamda assertivlik so'rovnomalari bilan birgalikda qo'llash; natijalarni t-test, korrelyatsion va regressiya tahlili yordamida qayta ishlash.

Muhokama.

Talabalik davri E. Erikson nazariyasiga ko'ra shaxsiy va kasbiy identifikatsiyaning yakunlanish bosqichi hisoblanadi [8]. Bu davrda yosh inson o'zining kelajakdagi kasbiy yo'lini aniqlash, moliyaviy mustaqillikka erishish va ijtimoiy mavqeyini shakllantirish bilan band bo'ladi. Ushbu vazifalar talabalarni o'ziga xos axborot xavflariga — masalan, "masofaviy ish", "stipendiya to'lovi" yoki "grant dasturi" niqobi ostida amalga oshiriladigan fishing hujumlariga, soxta ishga joylashtirish e'lonlariga hamda onlayn firibgarlikka — nisbatan zaifroq qiladi.

Bu o'rinda B. D. Parigin ta'kidlagan ijtimoiy adaptatsiya modeli alohida ahamiyat kasb etadi: talaba universitetga kirgan dastlabki oylarda yangi ijtimoiy muhitga moslashish jarayonini boshdan kechiradi, bu davrda uning axborotni tanqidiy baholash resurslari ko'pincha boshqa (moslashuv bilan bog'liq) vazifalarga sarflanadi, natijada u axborot xavfiga nisbatan odatdagidan ko'ra zaifroq holatga tushadi [12; 76-b.].

Muallifning o'smirlar bo'yicha o'tkazgan tadqiqotida o'g'il bolalarda internetga qaramlik darajasi qizlarga nisbatan statistik jihatdan yuqori bo'lgani aniqlangan (Yang metodikasi bo'yicha $t=1,97$; $p=0,05$) [1; 66-b.], shaharlik o'smirlarda esa tumandagilarga nisbatan yuqoriroq ko'rsatkich kuzatilgan (Chen metodikasi bo'yicha $t=1,98$; $p=0,05$) [1; 69-b.]. Talabalar populyatsiyasida ushbu tendensiyalarning saqlanib qolishi yoki o'zgarishi alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi: bir tomondan, talabalik davrida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish jins farqidan qat'i nazar professional maqsadlarda (masalan, LinkedIn, Telegram kasbiy kanallari) kengayishi mumkin, ikkinchi tomondan, yotoqxonada yashovchi talabalar oilada yashovchilarga nisbatan kattaroq erkinlik va shu bilan birga kattaroq axborot xavfiga ega bo'lishi mumkin.

Shuningdek, onlayn ta'lim platformalari (Moodle, Zoom, Telegram guruhlari) orqali tarqaladigan soxta xabarlar, onlayn imtihon davridagi stress holatida qaror qabul qilish sifatining pasayishi hamda talabalar orasida ijtimoiy

tarmoqlardagi "professional obraz" yaratishga bo'lgan intilish natijasida shaxsiy ma'lumotlarning ortiqcha ochiq qilinishi — bularning barchasi talabalarga xos, o'smirlarda kam uchraydigan axborot-psixologik xavf omillaridir.

Alohida ta'kidlash lozimki, talabalik davri nafaqat shaxsiy, balki fuqarolik va mafkuraviy identifikatsiyaning ham faollashuv bosqichi hisoblanadi: aynan shu davrda yosh inson dunyoqarashi, siyosiy-mafkuraviy qarashlari yakuniy shakl ola boshlaydi. Bu esa talabalarni o'smirlarga nisbatan boshqacha xarakterdagi — ideologik manipulyatsiya, dezinformatsiya va "yumshoq kuch" vositalari orqali amalga oshiriladigan ta'sirlarga nisbatan ham alohida tekshiruv obyekti sifatida ko'rib chiqishni taqozo etadi. Zamonaviy ijtimoiy tarmoqlarda tarqaladigan mafkuraviy-manipulyativ kontent ko'pincha aynan talaba-yoshlarni nishonga oladi, chunki bu guruh jamiyatning intellektual va faol qatlamini tashkil etadi hamda kelajakda jamoatchilik fikriga ta'sir o'tkazish salohiyatiga ega.

Natijalar.

O'tkazilgan nazariy tahlil asosida talabalarining axborot-psixologik xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillarning quyidagi tipologiyasi ishlab chiqildi: 1) shaxsiy-psixologik omillar (tanqidiy fikrlash darajasi, assertivlik, nazorat lokusi, internetga psixologik bog'liqlik); 2) ijtimoiy-vaziyatli omillar (yashash sharoiti, moliyaviy mustaqillik darajasi, kasbiy yo'nalish); 3) institutsional omillar (oliy ta'lim muassasasidagi axborot xavfsizligi bo'yicha profilaktik ishning mavjudligi, talabalar uchun psixologik xizmat faoliyati).

Ushbu tipologiya asosida quyidagi ishchi gipotezalar shakllantirildi: (G1) talabalarda internetga qaramlik darajasi o'quv yo'nalishiga (texnika/gumanitar) qarab farqlanadi; (G2) tanqidiy fikrlash darajasi past talabalar ijtimoiy muhandislik usullariga nisbatan yuqori zaiflikni namoyon qiladi; (G3) yotoqxonada yashovchi talabalarda oiladagilarga nisbatan axborot xavfsizligi bo'yicha ehtiyotkorlik darajasi past bo'ladi. Ushbu gipotezalar keyingi empirik tadqiqotda Yang, Chen, tanqidiy fikrlash va assertivlik metodikalari yordamida statistik tekshiruvdan o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Bundan tashqari, nazariy tahlil natijasida talabalar uchun profilaktik ish yo'nalishlari ham aniqlandi: 1) oliy ta'lim muassasalari o'quv dasturlariga "raqamli gigiyena va kiberxavfsizlik asoslari" fanini kiritish; 2) talabalar psixologik xizmati bazasida axborot-psixologik xavfsizlik bo'yicha maslahat va treninglar tashkil etish; 3) birinchi kurs talabalari uchun universitetga moslashish (adaptatsiya) davrida axborot xavfsizligi bo'yicha maxsus oriyentatsion mashg'ulotlar o'tkazish, chunki aynan shu davrda talaba yangi ijtimoiy muhitga moslashish bilan bir vaqtda ko'plab notanish axborot manbalari bilan to'qnash keladi.

Amaliy ahamiyati.

Ushbu maqolada ishlab chiqilgan nazariy-uslubiy asos bir necha yo'nalishda amaliy ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, taklif etilgan tipologiya va gipotezalar oliy ta'lim muassasalari psixologlari uchun talabalar orasida diagnostik so'rovnoma o'tkazishda tayyor asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ikkinchidan, keltirilgan xalqaro tajriba (xususan, Xitoy tadqiqotchilarining himoya motivatsiyasi nazariyasiga asoslangan yondashuvi [5]) mahalliy sharoitga moslashtirilgan holda, milliy oliy ta'lim tizimida axborot xavfsizligi bo'yicha profilaktik dasturlarni ishlab chiqishda qo'llanilishi mumkin. Uchinchidan, muallifning o'smirlar bo'yicha olingan empirik ma'lumotlari (jins va hudud bo'yicha farqlar) talabalar tadqiqotida solishtirma tahlil uchun boshlang'ich nuqta (baseline) vazifasini o'taydi, bu esa yosh davrlari kesimida axborot-psixologik xavfsizlik dinamikasini kuzatish imkonini beradi.

Shuningdek, taklif etilgan uslubiy dizayn — Yang va Chen metodikalarini tanqidiy fikrlash hamda assertivlik so'rovnomalari bilan birgalikda qo'llash — nafaqat ilmiy, balki amaliy nuqtayi nazardan ham qimmatlidir: bunday kompleks diagnostika natijalari asosida har bir talaba uchun individual psixologik-profilaktik yo'nalish (masalan, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish treningi yoki assertivlik bo'yicha maxsus mashg'ulot) belgilanishi mumkin, bu esa umumiy profilaktik tadbirlarga nisbatan ancha samaraliroq natija berishi kutiladi.

Xulosa.

Talabalarda axborot xavfsizligini ta'minlashning psixologik muammolari o'smirlarnikidan tubdan farqli, ammo ular bilan uzviy bog'liq bo'lgan muammolar majmuidir. Muallifning o'smirlar bo'yicha o'tkazgan magistrlik tadqiqoti ushbu yo'nalishdagi keyingi tadqiqotlar uchun ishonchli uslubiy poydevor yaratadi. Talabalar populyatsiyasida o'tkaziladigan tadqiqot nafaqat internetga qaramlik darajasini, balki tanqidiy fikrlash, assertivlik va nazorat lokusi kabi qo'shimcha psixologik konstruktarni ham qamrab olishi lozim. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida talabalar uchun maqsadli psixologik-profilaktik dasturlar ishlab chiqish imkonini beradi.

Yakun sifatida ta'kidlash joizki, talabalarining axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlash muammosi kompleks, ko'p bosqichli yondashuvni talab qiladi: bunda oliy ta'lim muassasasi, talabalar psixologik xizmati, oila hamda talabaning o'zi faol ishtirok etishi zarur. Muallif kelgusida ushbu nazariy-uslubiy asos negizida turli yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari talabalari orasida kengroq empirik tadqiqot o'tkazishni va uning natijalarini alohida ilmiy maqolalarda e'lon qilishni rejalashtirmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Meliboyev D. H. *Ta'lim muassasalarida o'smirlar axborot xavfsizligini ta'minlashning psixologik muammolari: magistrlik dissertatsiyasi*. – Farg'ona: FarDU, 2025.
2. Грачев Г. В. *Личность и общество: информационно-психологическая безопасность и психологическая защита*. – Москва: ПЕП СЭ, 2003. – 304 с. – <https://library.bmstu.ru/Catalog/Details/biblioclub/0000233266>
3. Войскунский А. Е. Информационная безопасность: психологические аспекты // *Национальный психологический журнал*. – 2010. – № 1. – С. 48–53. – <https://npsyj.ru/articles/article/3750/>

4. Vasko T. P., Aimaganbetova O., Yanczuk V. Students' Critical Thinking as an Aspect of Informational and Psychological Safety of a Person // *The Journal of Psychology and Sociology*. – 2017. – Vol. 60, No. 1. – <https://bulletin-psysoc.kaznu.kz/index.php/1-psy/article/download/748/581/1261>
5. Han M., Zhao H., Ma X., Shi R. Influencing Factors of Information Security Behavior among College Students Based on Protection Motivation Theory: Evidence from China // *Frontiers in Public Health*. – 2025. – Vol. 13. – Article 1677024. – <https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC12589003/>
6. Karimova V. M. *Ijtimoiy psixologiya asoslari*. – Toshkent: Sharq, 2007. – 190 b. – <https://akbt.urdu.uz/uz/books/16243>
7. Hayitova H. M. Zamonaviy dunyoda yoshlarning axborot xavfsizligiga asosiy tahdidlar // *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*. – 2024. – Vol. 4, № 7. – B. 161-167. – https://www.oriens.uz/media/journalarticles/21_Hayitova_H.M._161-167.pdf
8. Erikson E. H. *Identity: Youth and Crisis*. – New York: W. W. Norton & Company, 1968. – 336 p. – <https://books.google.com/books/about/Identity.html?id=WVWAYgEACAAI>
9. Kemp S. *Digital 2022: Uzbekistan*. – DataReportal, 2022. – <https://datareportal.com/reports/digital-2022-uzbekistan>
10. Андреева Г. М. *Социальная психология: учебник для вузов*. – Москва: Аспект Пресс, 2000. – 376 с. <https://lib.mgppu.ru/opacunicode/index.php?url=%2Fnotices%2Findex%2FIdNotice%3A17676%2FSource%3Adefault>
11. Богомолова Н. Н. *Социальная психология печати, радио и телевидения*. – Москва: Издательство МГУ, 1991. – 127 с. – <https://search.rsl.ru/ru/record/01001583059>
12. Парыгин Б. Д. *Социальная психология. Проблемы методологии, истории и теории*. – Санкт-Петербург: ИГУП, 1999. – 592 с. – https://lib.ineu.edu.kz/CGI/irbis64r_11/cgiirbis_64.exe?C21COM=S&I21DBN=KNIGA_PRINT&LNG=ru&P21DBN=KNIGA&S21FMT=fullw_print&S21P03=A%3D&S21STR=%D0%9F%D0%B0%D1%80%D1%8B%D0%B3%D0%B8%D0%BD%2C+%D0%91+%D0%94
13. Бехтерев В. М. *Коллективная рефлексология*. – Петроград: Колос, 1921. – 432 с. – https://rusneb.ru/catalog/000199_000009_005517575/